



11-SINFLAR VA ABITURIYENTLAR UCHUN


Sinov imtixonlari
savollar varaqasi

@MexmonxonovNamangan

14. Hisoblang : $-3\frac{3}{7} + \frac{3}{2}$
 A) $\frac{15}{14}$ B) $1\frac{1}{14}$ C) $\frac{-27}{14}$ D) $\frac{-21}{14}$

15. Tenglamani yeching : $\frac{30}{3-x} = \frac{20}{2+x}$
 A) 2 B) -1 C) 0 D) 1


16. Rasimda berilgan shakildan AOF burchakning gradus o'lchovini toping .



A) 60 B) 30 C) 90 D) 40

17. To'g'ri to'rtburchakning bo'yi 3,6 sm , eni bo'yidan 1,2 sm qisqa . Shu to'g'ri to'rtburchakning yuzini toping .
 A) $6,25 \text{ sm}^2$ B) $9,5 \text{ sm}^2$ C) $8,64 \text{ sm}^2$ D) 95 sm^2

18. Rasimdagi ma'lumotlardan foydalanib baliqning havodagi qismining uzunligini (dm) toping .



A) 3 B) 1 C) 4 D) 2

19. 2, 3, 5, 8, 13, 21, qatordagi keying sonni aniqlang .
 A) 31 B) 32 C) 33 D) 34

20. 2hafta 72 soat 4320 minut necha sutka ?
 A) 17 B) 21 C) 20 D) 19

O'zbekiston tarixi

21. II jahon urushi yillari mobaynida tub burilish yashagan jang qaysi?
 A) Moskva B) Stalingrad C) Brest D) Gdansk (Dansig)

22. Quyida berilgan insonlar orasidan o'zbek musiqa san'atiga katta hissa qo'shgan bastakorlarni aniqlang
 A) Mutavakkil Burhonov, Muxtor Ashrafiy, Aziz Rajabiy
 B) Komil Yormatov, Nabi G'aniyev, Rahim Pirmuhammedov

C) Bobojon Sanoiy, Muhammadrizo Oxund, Muhammadyusuf Roziy
 D) To'xtasin Jalilov, Muxtor Ashrafiy, Mutal Burxonov

23. Animizm bu.....
 A) hayvon yoki o'simlik turiga qarindoshlik aloqasi borligiga ishonish
 B) Biror- bir buyumni omad keltirishim yoki balo-qazodan asrashiga ishonish
 C) Insonni qurshab turgan muhitda jon va ruhlarning borligiga ishonish
 D) Xristian cherkovida ruhoniylar o'qiydigan bilim yurti

24. O'zbekiston Respublikasida bosh vazir lavozimi qachon ta'sis etilgan?
 A) 1992-yilda B) 1990-yilda C) 1991-yilda D) 1994-yilda

25. "Sho'roi Ulamo" tashkilotining Qo'qon sho'ba Rahbari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?
 A) Sherali Lapin
 B) Mulla Muhiddinxon, Mulla Ulug'xon To'rayev
 C) Mulla Abdulqahhor
 D) Ibrohimbek va Davlatmandbek

26. XVIII asr oxirlarida Polvonquli qurchi boshchiligidagi elchilarni Rossiya jo'natgan Buxoro Amir kim?
 A) Amir Shohmurod B) Amir Haydar C) Amir Nasrullo D) Umarxon

27. Soliq va hashar ishlarini tartibga solish to'g'risida farmon bergan Mo'g'uliston xoni kim?
 A) To'ng Yabg'u B) Munke C) Kebekxon D) Tug'luq Temur

28. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlariga harbiy harakat amalga oshirishning nechanchi bosqichida Amudaryo bo'limi tuzilgan?
 A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

29. Buxoro amirligiga qarshi ko'tarilgan qayerdagi qo'zg'olonda Pomir chegara qo'shinlari yodamida bostirilgan?
 A) Baljuvon B) Xonqa C) Ko'lob D) Kalif

30. "Botir gapchilar" siyosiy ishi kimga nisbatan ko'tarilgan?
 A) Mannon Ramziy B) Ashurali Zohiriy C) Sa'dulla Qosimov D) Rahim Inog'omov

BIOLOGIYA

31. Quyida berilgan qaysi qatorda organizmlarning sistematik o'rnolari haqida to'g'ri ma'lumot berilgan?

- A) *jo'rchi, sarisor, ukki, mallabosh* – bir turkumga mansub
 B) *gaaga, churрак, suqsun, Pekin* – o'rdaksimonlar turkumi vakili
 C) *los, vapiti, jirafa, arxar, nosorog, suv ayg'iri* – bir turkumga mansub hayvonlar
 D) *gornotsoy, karaganka, oqquyruq, lori, kaputsin* – bir sinfga mansub

32. Bir yadroli, ikki yadroli, ko'p yadroli va yadrosiz hujayralar mos tartibda to'g'ri ketma-ketlikda berilgan to'g'ri javobni aniqlang.

- A) *silliqlik tolali muskul hujayralari, tufelka, jigar hujayralari, odam leykositlari*
 B) *achitqi zamburug'i, telofazada sitokinezdan avvalgi hujayra, yurak muskuli hujayralari, elaksimon naylar*
 C) *xlomidomonada, tufelka, silliqlik tolali muskul hujayralari, trombosit hujayralari*
 D) *xlotella, chang donasi, suyak ko'migi, kollenzima*

33. Ko'l baqasining qon aylanish sistemasidan ildam kaltakesak qon aylanish sistemasi farq qilib.....

- A) *o'pka venasi bo'ylab arterial qon harakatlanadi*
 B) *o'pka arteriyasi orqali venoz qon o'pka va teriga boradi*
 C) *yuragining chap bo'lmachasida kislorod gazining miqdori karbonat angidridnikidan ko'p*
 D) *yurak qorinchasi chala to'siq bilan ajralgan*

34. Kungaboqar o'simligi haqidagi to'g'ri fikrlarni tanlang.

- a) bir yillik o't va bo'yining bir metrgacha yetishi bilan qo'ytikanga o'xshaydi; b) savatcha to'pgulga ega bo'lishi bilan topinamburga o'xshaydi; c) 5 ta gul tojbarglarining qo'shilganligi va madaniy o'simlik ekanligi bilan pomidorga o'xshaydi; d) chatnaydigan quruq meva hosil qilishi bilan jag'-jag'ga o'xshaydi, e) o'q ildiz tizimiga ega bo'lishi bilan shirachga o'xshaydi; f) pista meva hosil qilishi bilan kovrakga o'xshaydi
 A) *b, c* B) *a, d, f* C) *e, f* D) *b, d, e*

35. Quyida qaysi javobda berilgan turkumlarning O'zbekistondagi turlar yig'indisi shuvoqning turlar soniga teng bo'ladi?

- A) *na'matak, lola, saksovul*
 B) *ituzum, nok, jag'-jag', olma*
 C) *boychechak, saksovul, nok*
 D) *na'matak, nok, saksovul*

36. Eukariot va prokariot organizmlar uchun umumiy bo'lgan xususiyatlari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) DNK nukleotidlari turlari; 2) anaerob nafas olishi; 3) plazmatik membrananing tuzilishi; 4) hujayraviy tuzilish; 5) mitoz jarayoni; 6) jinsiy hujayralar; 7) gazli vakuolalar jarayoni; 8) fotosintez jarayonining xloroplastlarda o'tishi
 A) *1, 3, 4, 8* B) *1, 3, 6, 8*
 C) *1, 2, 3, 4* D) *1, 5, 6, 7*

37. Insulin gormoni tarkibiga kiruvchi mikroelement qaysi?

- A) *mis* B) *kobal* C) *rux* D) *yod*

38. Hayvonot dunyosi vakillarida ichak bilan tutashgan organlarni aniqlang.

- 1) hasharotlarning malpigi naychalari; 2) baliqlarning oshqozon osti bezi yo'li; 3) suv shillig'ining so'lak bezlari; 4) baliqlarning suzgich pufagi; 5) ko'l baqasining jinsiy yo'llari; 6) kalmarning siyoh haltasi yo'li; 7) oq planariyaning halqumi; 8) daryo qisqichbaqa sining katta oshqozoni.
 A) *1, 3, 6* B) *2, 4, 8* C) *1, 4, 7* D) *4, 5, 6*

39. Odam tanasining o'ng tomonida (I) va chap tomonida(II) qanday organlar joylashgan.

- 1) o't pufagi, 2) taloq, 3) qovurg'alar; 4) yurak; 5) me'da, 6) jigar, 7) ko'richakning chuvalchangsimon o'simtasi
 A) *I – 1, 3, 4, II – 2, 5, 6*
 B) *I – 2, 6 II – 1, 4, 5, 7*
 C) *I – 1, 3, 6 II – 2, 3, 4, 5*
 D) *I – 2, 3, 4, 5 II – 1, 3, 6*

40. Polimiyelit (a) kuydirgi (b) qichima (c) qoqshol (d) oqpalak (e) kabi kasalliklarning qo'zg'atuvchilari qaysi javobda to'g'ri juftlangan?

- A) *a – virus; b – virus; c – zamburug'; d – bakteriya; e – zamburug'*
 B) *a – virus; b – bakteriya; c – hayvon;*

d – bakteriya; e – zamburug'

C) a – virus; b – bakteriya; c – hayvon; d – virus; e – zamburug'

D) a – bakteriya; b – virus; c – zamburug'; d – bakteriya; e – hayvon

41. Sholg'om o'simligi mansub sinfga (a) va faqat oilaga (b) xos xususiyatlarni aniqlang.

- 1) gullari shingil to'pgulda o'rnatilgan;
- 2) gulkosachabarglari erkin, 4 ta;
- 3) changchilari oltita;
- 4) murtagi ikki urug'pallali;
- 5) ildiz tizimi asosiy va yon ildizlardan iborat;
- 6) poyasi kambiyli, yo'g'onlasha oladi;
- 7) gulkosachabarglari va gultojbarglari 4-5 tadan.

*A) a - 4, 5; b- 2, 3 B) a - 1, 5; b - 6, 7
C) a- 5, 6; b- 4, 7 D) a- 3, 4; b- 5, 7*

42. Chuchuk suv shillig'i organlarining tuzilishi haqidagi noto'g'ri ma'lumotlarni aniqlang

- 1) yurak qorinchasidan chiquvchi qon tomirning uchi ochiq;
- 2) paypaslagichlari sezgi hamda ozuqani tutib og'izga yo'naltirish vazifasini bajaradi;
- 3) mayda tishchalar bilan qoplangan muskulli tilchasi qizilo'ngach ichida joylashgan;
- 4) jigar ishlab chiqargan suyuqlik oshqozon bo'shlig'iga quyiladi;
- 5) bir juft tasmasimon buyragining voronkasimon uchi yurak oldi bo'lmasiga ochiladi;
- 6) tuxum va spermatozoidlar bitta organizmning o'zida hosil bo'ladi

A) 2,4 B) 2,5 C) 3,6 D) 1,5

43. Ligazalarga xos to'g'ri fikrni toping.

- A) *tranlyatsiyada ishtirok etadi, purin asoslariga ega*
- B) *DNK bo'laklarini bir-biriga bog'lovchi fermentlar guruhi*
- C) *polinukleotidlardan tuzilgan molekula*
- D) *DNK molekulasini spetsifik tarzda bo'laklarga bo'luvchi fermentlar guruhi*

44. Morfologik (a), ekologik (b), fiziologik (c) mezon dalillari to'g'ri juftlangan javobni aniqlang. 1) baliq tuxumlaridan lichinkalarning rivojlanishi; 2) urug'lardagi yog' miqdori; 3) arealda tarqalishi; 4) xromosomalarning tuzilishi va miqdori; 5) gulning tuzilishi va meva turi; 6) organizmlarning suv muhitiga moslanishi

A) a - 3; b - 6; c - 4 B) a - 5; b - 2; c - 1

C) a - 5; b - 6; c - 2 D) a - 5; b - 6; c - 1

45. Ko'l baqasining ko'lbuqadan farqli xususiyatlarini aniqlang.

- 1) kichik qon aylanish doirasi yuragining chap bo'lmasida yakunlanadi;
- 2) tana harorati tashqi muhit haroratiga bog'liq;
- 3) bilvosita rivojlanadi;
- 4) orqa ichagining keyingi qismi kengayib, kloakani hosil qilgan;
- 5) bosh skeletlilar kenja tipi vakili;
- 6) ko'krak qafasi rivojlanmagan

A) 2, 4, 5 B) 2, 3, 6 C) 1, 3, 4 D) 1, 5, 6

46. Odamda ter bezlarining bo'lmasligi va daltonizm jinsiy X xromosomaga bog'liq retsessiv holda irsiylanadi. Sog'lom erkak sog'lom qizga (qizning otasi daltonik va ter bezlari yo'q) uylandi. Tug'iladigan farzandlarning necha foizi daltonik bo'ladi? (Krossingover kuzatilmagan)

A) 6,25 B) 75 C) 25 D) 50

47. Xromosoma tarkibidagi genlar AbCdeFGhklMnOP izchillikka ega bo'lsa, ushbu xromosoma gomologi tarkibidagi genlar izchilligini aniqlang. (har bir harf bitta gen deb olingan)

*A) AbCdeF fJWrzQO B) aBCdEfgHkLMnOp
C) AbzdEfgqkLWntp D) sbCdEfgqXLWntp*

48. Biotik munosabat shakllari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- 1) qushlar va kemiruvchi hayvonlarning uyalarida turli o'rgimchaksimonlar va hasharotlar yashashi;
- 2) dukkakli o'simliklarning azot fiksatsiyalovchi bakteriyalar bilan hosil qilgan simbioz munosabati;
- 3) ayrim baliq turlari yirik baliqlar terisini, jabra va og'iz bo'shlig'ini parazitlardan tozalab berishi;
- 4) tasqaralarning sherlar ovqat qoldiqlari bilan oziqlanishi

*A) 1, 4 – kommensalizm; 2 – mutualizm;
3 – protokooperatsiya
B) 1, 4 – kommensalizm; 2 – protokooperatsiya;
3 – mutualizm
C) 1, 3 – kommensalizm; 2 – amensalizm;
4 – protokooperatsiya
D) 1 – amensalizm; 2 – mutualizm;
3 – protokooperatsiya; 4 – kommensalizm*

49. Fitosenoz tarkibiga kiruvchi tokdoshlar oilasi

uchun xos bo'lgan belgilarni aniqlang.

- 1) produtsent organizm; 2) urug'chisi ikkita mevabargning qo'shilishidan hosil bo'lgan;
3) mevasi rezavor; 4) gullari qiyshiq; 5) to'pguli oddiy shingil; 6) murakkab va oddiy bargli o'simliklar uchraydi; 7) mevasi ko'sakcha
A) 2, 5, 7 B) 1, 3, 4, 6 C) 3, 4, 7 D) 1, 2, 3, 6

50. Fragmentatsiya usulida ko'payuvchi organizmni aniqlang.

- A) *slamidomonada* B) *achitqi zamburug'i*
C) *zirhlilar* D) *spirogira*

51. Nafas chiqarish jarayonida odam organizmidagi qaysi muskullar qisqaradi?

- A) *to'rt boshli muskul, tashqi qovurg'alararo muskul*
B) *ichki qovurg'alararo muskul*
C) *diafragma muskuli, tashqi qovurg'alararo muskul*
D) *to'rt boshli muskul, diafragma muskuli*

52. Biologik jarayon va hodisalarni ular o'rganadigan fan bilan mos holda juftlangan javobni aniqlang.

- 1) mitoxondriyadagi metabolizm jarayoni;
2) qazilma holdagi organizmlarni o'rganish
A) 1 - *biologiya*; 2 - *biogeografiya*
B) 1 - *anatomiya*; 2 - *biologiya*
C) 1 - *sitologiya*; 2 - *paleontologiya*
D) 1 - *morfologiya*; 2 - *lixenologiya*

53. Quyidagilar orasidan jinsiy dimorfizm kuzatiladigan hayvonlarni aniqlang.

- 1) nereida; 2) mol kanasi; 3) kallima; 4) los;
5) baqachanoq; 6) chumchuq
A) 2, 3, 4 B) 2, 5, 6 C) 1, 3, 6 D) 1, 2, 3

54. Qaysi gormon odam organizmida suyaklarning o'sishini boshqarishda ishtirok etadi?

- A) *somatotropin* B) *timozin*
C) *melatonin* D) *tiroksin*

55. Maltozaning saxarozadan farq qiluvchi xususiyatlarini ko'rsating.

- 1) glikozid bog'larga ega; 2) faqat glyukoza monomeriga ega; 3) gidrofil birikma;
4) donning unish jarayonida hosil bo'ladi
A) 1, 3 B) 2, 4 C) 1, 4 D) 2, 3

56. Quyida nechta tipga (a) va nechta sinfga (b) mansub hayvonlar keltirilgan?

- 1) jigar qurti; 2) qutb meduzasi; 3) qoramol tasmasimon chuvalchangi; 4) yomg'ir chuvalchangi; 5) zuluk; 6) omar; 7) kana;
8) iskaptopar; 9) qandala; 10) chivin
A) a - 9; b - 10 B) a - 5; b - 10
C) a - 5; b - 9 D) a - 4; b - 8

57. Karakatitsa ko'zi (I) va kalmar ko'zi (II) qaysi a'zo o'zgarishidan paydo bo'lgan va ular o'zaro qanday organ hisoblanadi (III)?

- 1) oldingi oyog'ining o'zgarishidan hosil bo'lgan; 2) ektoderma qavatining cho'zilishidan rivojlanadi; 3) bosh miya yon o'simtasidan rivojlanadi; 4) endoderma qavatining cho'zilishidan rivojlanadi.
a) gomologik organ; b) analogik organ
A) I - 2; II - 4; III - a B) I - 2; II - 2; III - b
C) I - 1; II - 3; III - b D) I - 2; II - 2; III - a

58. Quyida berilganlardan algologiya fanining o'rganish obyekti bo'lgan organizmlarni aniqlang.

- 1) parmeliya; 2) xara; 3) funariya; 4) ulotriks;
5) everniya; 6) psilofit; 7) spirogira;
8) usneya barbata
A) 1, 4, 6 B) 1, 5, 8 C) 3, 5, 7 D) 2, 4, 7

59. Quyida berilgan qaysi hayvon zotlarining yovvoyi ajdodi tarpan hisoblanadi?

- 1) "Orlov yo'rg'asi"; 2) "Kornuel";
3) "Romanov"; 4) "Qorabayir";
5) "Nyugempshir"; 6) "Merinos"; 7) "Axaltaka";
8) "Hisor"; 9) "Lekgorn"; 10) "Rus yo'rg'asi"
A) 1, 5, 6, 9 B) 2, 4, 7, 9 C) 3, 5, 6, 8 D) 1, 4, 7, 10

60. Chiriyotgan o'simlik, zamburug' va hayvon qoldiqlari qanday ataladi?

- A) *detrit* B) *xemotrof*
C) *konsument* D) *produtsent*

KIMYO

61. 100 g 14 % li kaliy gidroksid eritmasi 4 F tok bilan elektroliz qilindi. Hosil bo'lgan eritmaning molyal konsentratsiyasini (mol/kg) hisoblang.

- A) 0,25 B) 0,5 C) 2,5 D) 5

62. Sulfat anhidrid bilan qaysi gaz teng massada aralashtirilsa, molyar massa 32 g/mol bo'ladi?

- A) geliy B) metan C) neon D) kislorod

63. NH_4^+ va CH_4 , uchun umumiy bo'lgan xususiyat(lar)ni toping.

- 1) donor-akseptor bog'ining mavjudligi;
2) markaziy atomning gibridlanish turi;
3) markaziy atomning valentligi;
4) markaziy atomning oksidlanish darajasi
A) 1,4 B) 2,3 C) 2,3,4 D) 1

64. Ma'lum hajmdagi suvda litiy oksid eritildi. Ushbu jarayon uchun quyidagilardan qaysilari to'g'ri?

- 1) pH ortadi; 2) H^+ ionlari ortadi; 3) pOH ortadi;
4) OH^- ionlari ortadi.
A) 1, 4 B) 1,2 C) 3,4 D) 2,3

65. 0,05 mol noma'lum alkan to'liq yondirildi. Bu jarayonda oksidlovchi qaytaruvchidan $9,632 \cdot 10^{23}$ ta elektron olgan bo'lsa, alkanni aniqlang.

- A) pentan B) geksan C) heptan D) oktan

66. $\text{P}_x\text{S}_y + 74\text{HNO}_3(\text{kons}) \rightarrow$ reaksiya tenglamasini tugallang va suvning oldidagi koeffitsiyentni aniqlang. ($y-x=5$)

- A) 15 B) 18 C) 22 D) 28

67. Ekvimolyar nisbatda olingan 6 gramm ikkita ishqoriy metall aralashmasini suv bilan reaksiyasi natijasida 0,2 mol gaz ajraldi. Metallarni aniqlang.

- A) Li va Na B) Na va K
C) Li va K D) Na va Rb

68. $\text{E} \rightarrow {}_{92}\text{U} + 4\alpha + \beta + 5{}^1_0\text{n}$ Ushbu yadro reaksiyasida chap va o'ng tomon neytronlari yig'indisi 305 ta bo'lsa, E atomidagi proton, elektron va neytronlar yig'indisi nechaga teng bo'ladi?

- A) 353 B) 354 C) 351 D) 352

69. Temir (II) sulfid va aluminiiy sulfiddan iborat aralashma 100 ml suvda eritildi. Bunda umumiy massasi 25,4 g bo'lgan cho'kma va 5,1 g gaz ajraldi. Dastlabki aralashmadagi temir (II) sulfidning massasini (g) hisoblang.

- A) 4,4 B) 8,8 C) 13,2 D) 17,6

70. Dissotsiyalanganda ikki xil anion hosil qiladigan elektrolitni korsating.

- A) NaOH B) H_2SO_4 C) NaKSO_4 D) NaNO_3

11. $\text{pH}=5$ bo'lgan eritmadagi OH^- ionining konsentratsiyasini (mol/l) hisoblang.

- A) 10^{-5} B) 10^{-9} C) 5 D) 9

72. Alyuminiy sulfat va natriy karbonat qanday mol nisbatda aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmadagi kation va anionlarning mol nisbati 6:7 bo'ladi?

- A) 5:9 B) 7:3 C) 5:6 D) 8:3

73. Butan katalizator ishtirokida qizdirilganda uning x% i izobutanga aylandi. Izomerlanish konstantasi (K_m) uchga teng bo'lsa, x ni toping.

- A) 30 B) 75 C) 60 D) 80

74. Tegishli metallning kislorodda yonishi natijasida hosil bo'ladigan oksid(lar)ni belgilang.

- 1) Na_2O 2) CaO 3) Li_2O 4) K_2O 5) CuO
A) 2,3,5 B) 1,3,5 C) 1,2,4 D) 3,4,5

75. Zichliklar nisbati 1:4 bo'lgan ikki suyuqlik teng hajmda aralashtirilganda zichligi 1,5 g/ml bo'lgan suyuqlik hosil bo'ldi. Agar shu ikki suyuqlikni teng massada aralashtirilsa zichligi (g/ml) suyuqlik hosil bo'ladi?

- A) 0,96 B) 1,15 C) 1,24 D) 1,56

76. Quyidagi galogenlar qatorida qaytaruvchilik xossasi qanday o'zgaradi.

- $\text{Br}_2 \rightarrow \text{Cl}_2 \rightarrow \text{I}_2 \rightarrow \text{F}_2$ a) ortadi b) kamayadi
A) 1-b, 2-b, 3-a B) 1-a, 2-a, 3-a
C) 1-b, 2-b, 3-b D) 1-b, 2-a, 3-b

77. Ikkita bir xil hajmli idishga bir xil massadagi silan va neon gazlari solindi. Agar idishdagi bosimlar 1,5 atm ga farq qilsa, silan to'ldirilgan idishdagi bosimni (atm) aniqlang. (Idishlarning temperaturalari bir xil deb hisoblang)

- A) 2,5 B) 5 C) 1,6 D) 4

78. 3,2 g metan 15 sekundda to'liq yonsa, quyidagilardan qaysilari to'g'ri?

- 1) metanning yonish tezligi 12,8 g/sek;
2) metanning yonish tezligi 0,8 mol/min;
3) kislorodning sarflanish tezligi 0,4 mol/sek;
4) karbonat anhidridning (n.sh.) hosil bo'lish tezligi 17,92 litr/min
A) 1, 2 B) 1, 4 C) 2, 3 D) 2, 4

79. Ftorini suvda yaxshi va yomon eriydigan birikmalarini belgilang.

- A) AuF va NaF B) CaF va AuF
C) AgF va CaF_2 D) NaF va HF

80. Tarkibida 2 ta sp^3 -s qoplanish mavjud bo'lgan modda(lar) ni ko'rsating.

- 1) $HClO_3$ 2) H_2SO_3 3) H_2SO_4 4) H_3PO_4
A) 1,3 B) 3,4 C) 1,2 D) 2,3

81. Bosh va orbital kvant sonlari yig'indisi 6 ga teng bo'lgan ($n+l=6$) necha xil holat mavjud.

- A) 5 B) 2 C) 3 D) 4

82. Metall (III) valentli gidrofosfat tuzining ekvivalentini topish uchun Mr ni qaysi songa nisbatini olamiz.

- A) 3 B) 6 C) 2 D) 5

83. Pirofosfat kislota eritmasida vodorod va kislorod atomlari soni teng bo'lsa, kislota va suvni mol nisbatini aniqlang.

- A) 1:2 B) 1:3 C) 1:4 D) 1:1

84. E^{-3} ioni $1s^2 2s^2 2p^6$ konfiguratsiyaga ega bo'lsa, elementni aniqlang.

- A) xrom B) azot C) aluminiy D) fosfor

85. Kristall panjara tugunlarida ham neytral atom, ham ion uchraydigan moddalarni ko'rsating?

- 1) Cu; 2) $CuSO_4$; 3) Ge; 4) Zn; 5) B; 6) KOH;
A) 1, 4 B) 3, 5 C) 4, 6 D) 2, 6

86. Temperatura ortishi bilan tuzlarning eruvchanligi ham ortadi. Tuzlarning erish issiqligi qanday bo'ladi?

- A) $\Delta H > 0$ B) $\Delta H < 0$ C) $\Delta H = 0$ D) $\Delta H \leq 0$

87. Molyar konsentratsiyalari 1:3 nisbatda bo'lgan ikki eritmaning umumiy hajmi 20 litrga teng. Agar ikkala eritmada bir xil miqdorda erigan modda bo'lsa, konsentratsiyasi katta bo'lgan eritma hajmini (litr) toping.

- A) 5 B) 15 C) 12 D) 10

88. Ma'lum haroratdagi $CuSO_4$ to'yingan eritmasining molyal konsentratsiyasi 2,5 mol/kg ga teng bo'lsa, tuzning shu haroratdagi eruvchanlik koeffitsiyentini toping.

- A) 32 B) 40 C) 48 D) 24

89. Tarkibida $4,3 \cdot N_A$ ta atom saqlagan $xH_2SO_4 \cdot ySO_3$ tarkibli oleumga vodorod va kislorod atomlari soni tenglashguncha $4,8 \cdot N_A$ atom saqlagan suv qo'shildi. Dastlabki oleum tarkibni aniqlang.

- A) $H_2SO_4 \cdot 0,4SO_3$ B) $H_2SO_4 \cdot SO_3$
C) $H_2SO_4 \cdot 0,5SO_3$ D) $H_2SO_4 \cdot 0,2SO_3$

90. +2 zaryadli ion hosil qiluvchi metaldan yasalgan va massasi bir xil bo'lgan ikkita plastinkaning birini mis (II) xlorid eritmasiga, ikkinchisini kumush nitrat eritmasiga tushirib qo'yildi. Biroz vaqt o'tgandan keyin mis (II) xlorid eritmasiga tushirilgan plastinka massasi 3,0 g ga kamaydi, ikkinchi plastinkaning massasi 6,5 g ga ortdi. Sarflangan mis (II) xlorid va kumush nitratning mol nisbati 1:2 nisbatda bo'lsa, Metallni aniqlang.

- A) Fe B) Mg C) Mn D) Cd